


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**TABIIY VA IQTISODIY FANLAR BLOK MODULI
BO‘YICHA UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI
(IX SINF)**

GEOGRAFIYA



Toshkent-2018

TUSHUNTIRISH XATI

Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadrijiy ravishda o'zgarib borayotgan vaqtda maktablarda geografiya fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitishzamon talabidir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda fanlarni o'qitish jarayonida fan-texnika taraqqiyoti, muhandislik, matematika va kundalik hayot bilan bog'lab o'rganish (STEAM yondashuvi) ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning dolzarb masalasidir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda geografiya (Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi) fanidan ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Geografiya(Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi) ta'limida o'rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o'quvchilarga tushunarli holda umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o'quvchilarning bilim olish o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratishdan iborat.

Geografiya(Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi)fanini o'qitishning asosiy maqsadi: o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, jahon va O'zbekistonning tabiiy sharoiti, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish, global va regional muammolar haqida tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Geografiya(Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi)fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

Yer sayyorasi, dunyoning yirik mintaqa va davlatlari, O'zbekiston Respublikasi tabiati, aholisi hamda iqtisodiyoti haqidagi tizimli va majmual bilimlarni tarkib toptirish;

geografik makonning global va regional miqyosidagi hududiy tabaqalanish qonuniyatlarini tushuntirish;

joynomlarivageografikatamalarinigo'g'riqo'llashko'nikmalarinishakllantirish;

hozirgi zamon jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mohiyati va xususiyatlari to'g'risida tasavvur hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan tejamkorlik munosabatini o'stirish;

turli axborot manbalaridan foydalangan holda, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt hamda hodisalarni tavsiflash, geografik xaritalar, statistik va grafik ma'lumotlar bilan ishlashning amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish;

geografik bilimlar asosida o'quvchilarning iqtisodiy va siyosiy fikrlash doirasini kengaytirish;

o'quvchilarni Vatanga mahabbat, milliy iftihar, fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash.

STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan. Geografiya o'quv fanini o'rganishning birinchi davri 1- va 2-sinflarda Yer, Quyosh, ob-havo, fasllar, Yer yuzasining tuzilishi, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida, 3-4 sinflarda tabiat hodisalari, mamlakatimiz tabiati haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Fanni o'rganishning ikkinchi davri umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-10-sinflari bo'lib, o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilgan matematika, fizika, botanika, kimyo, texnologiya fanlaridan olingan bilimlar umumlashtirilib, Yer sayyorasi, har bir materik, qit'a, okean, O'zbekiston Respublikasi, mamlakatimizga tarixiy-geografik, iqtisodiy jihatdan yaqin davlatlar va dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarning tabiati, aholisi, iqtisodiyoti, geosiyosiy holati va geoeologik sharoiti to'g'risida ma'lumotlar beriladi hamda amaliyotda qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Dasturning yana bir jihati shundan iboratki, bunda o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga e'tibor qaratilgan.

O'qituvchidarsini tashkil etishda o'qitish usulining turli (ma'ruza, og'zaki bayon qilish, amaliy topshiriq o'quv atlas va xarita bilan ishlash va boshqa) shakllaridan foydalanish mumkin. Darsni tashkil etishda dars berishning turli noan'anaviy usullaridan (bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar) hamda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, ularni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan, muammoli ta'lim, loyihalash, interfaol, hamkorlikda ishlash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda o'qituvchi tomonidan dars jarayonida zamonaviy texnologiyalarda foydalanishi dars samaradorligining oshishiga va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

STEAM ta'limi bilim, ko'nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali sinfdagi dars mashg'ulotlari va maktabdan tashqari kundalik faoliyatida o'quvchilarning amaliy o'quv

tadqiqotlarini o'tkazish, ko'rish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bunda o'quvchi yoshlarning qiziqishlarini ertaroq aniqlash va iqtidorini, ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirish, yangiliklarni hayotga tatbiq etish orqali ilmiy izlanuvchanligi hamda yaratuvchanligini rivojlantirish uchun o'quv dasturining boshida har bir sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Mazkur talablarning o'quvchilar tomonidan bajarilishini ta'minlash o'qituvchining asosiy vazifasidir. Bu o'z o'rnida o'quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur o'quv dasturida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan **amaliy mashg'ulotlar**, o'quvchilarni mustaqil bajarishga va ijodiy fikrlashga undovchi **amaliy topshiriqlar** berilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulot strukturasi mashg'ulotni bajarish tartibi va uni o'tkazish uchun zarur o'quv jihozlari nomlari keltiriladi. O'quvchi berilgan topshiriq asosida tabiiy hodisalarni, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni kuzatadi, aniqlaydi, tahlil qiladi va xulosa yozadi. Amaliy mashg'ulot darsi uchun alohida soat ajratiladi.

Amaliy topshiriq strukturasi o'z ichiga matn, xarita, rasm, grafik, diagramma yoki jadval orqali ifodalanadi. O'quvchi berilgan topshiriqlarni xarita, matn, rasm, diagramma, grafik, jadvaldan foydalanib bajaradilar. Amaliy topshiriqlar o'tilgan mavzularga kesimida yoki fanlarning aloqadorligini qamrab olish uchun topshiriqlar bo'lishi mumkin.

Ushbu o'quv dasturidagi barcha mavzularga ajratilgan umumiy soatlar hajmi keltirilgan bo'lib, ularning taqsimlanishi o'qituvchi tomonidan ijodiy yondoshgan holda amalga oshiriladi. Jumladan, taqvim mavzui reja tuzishda o'quv dasturidagi barcha mavzularga ajratilgan (mavzularga berilgan) umumiy soat hajmi dan chiqqan holda taqsimlanishi zarur.

Shuningdek, o'quvchilarning Davlat ta'lim standartini o'zlashtirish yuzasidan o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida mavzularga ajratilgan soat hajmini 15% gacha o'zgartirish va metodik kengash yig'ilishida kelishilgan holda maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur dasturda tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxatidan fan o'qituvchilari ijodiy yondoshgan holda mavzularni kengaytirib o'qitishda foydalanishlari mumkin.

Mazkur o'quv dasturi 2019/2020 o'quv yilida IXsinfda amaliyotga joriy etiladi.

(JAHON IQTISODIY-IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI)

(68 soat)

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini tahlil qiladi;
aholi dinamikasi va tarkibi, zamonaviy demografik jarayonlar, urbanizatsiya(shaharlashuv) va aholimigratsiyasining mohiyatini tahlil qiladi;
dunyoning yirik mintaqa va davlatlariga iqtisodiy-geografik tavsif beradi;
aholi va ishlab chiqarishning joylashuviga ta'sir etuvchi geografik omillarni tushunadi;
davlatlarning resurslar bilan ta'minlanganligini berilgan ma'lumotlar asosida baholaydi;
tabiiy resurslarning geografik tarqalish qonuniyatlarini izohlaydi;
hozirgi fan-texnika inqilobi ta'sirida jahon xo'jaligini qanday o'zgarganligini ma'lumotlar asosida izohlay oladi;
ekologik muammolar ularning kelib chiqish sabablarini biladi.

O'quvchilar o'quv faoliyatini natijalariga qo'yiladigan talablar:

(chuqurlashtirilgan sinflar uchun)

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ro'y berayotgan demografik va migratsion, urbanizatsiya jarayonlari kuzatadi;
dunyo mamlakatlaridagi transchegaraviy ekologik muammolar mohiyatini tushunadi va tahlil qiladi.
davlatlar, mintaqalar, shaharlar va boshqa obyektlarning nomlari tarixiy, madaniy va siyosiy mazmun-mohiyatga ega ekanligini biladi.

I BO'LIM. JAHONNING UMUMIY TAVSIFI

IBOB. JAHONNING SIYOSIY XARITASI

(3soat)

Jahonning siyosiy xaritasi.

Jahon siyosiy xaritasi tushunchasi. Hozirgi vaqtdagi jahon siyosiy xaritasidagi davlatlar soni, ularning maydoni bo'yicha eng yirik va eng kichiklari. Davlatlarning geografik o'rni jihatidan tasniflanishi – orol, yarimorol, dengiz bo'yi, ichki kontinental mamlakatlar. Jahon siyosiy xaritasidan oxirgi 25-30 yildagi o'zgarishlar - Sobiq Ittifoq va Yugoslaviyaning parchalanishi, Chexoslovakiyaning bo'linishi, Germaniyaning birlashishi, Eritreya, Sharqiy Timor, Janubiy Sudanning mustaqillikka erishishi.

Jahon mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo'yicha tasnifi.

Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan tasniflash mezonlari. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar, ularning asosiy guruhleri. O'tish iqtisodiyotidagi davlatlar.

Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlattiuzilishi.

Respublika va monarxiya davlatlari, ularning tiplari. Unitar va federativ davlatlar.

II BOB. JAHON TABIIY RESURLARI

(5 soat)

Dunyoning tabiiy resurslari.

Tabiiy resurslar tushunchasi va ularning tasniflanishi. Tabiiy resurslarning hududiy birikmasi. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik tushunchasi. Jahon mamlakatlarining tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi jihatidan guruhlashtirilishi.

Mineral resurslar geografiyasi.

Dunyoning yirik yoqilg'i havzalari. Qora va rangli metallar eng ko'p tarqalgan hududlar. Noruda foydali qazilmalar eng ko'p tarqalgan hududlar. Asosiy foydali qazilmalar (neft, tabiiy gaz, ko'mir, temir ruda)ning eng katta zaxiralariga ega bo'lgan davlatlar.

Tugamaydigan vatikanadigantabiiy resurslar geografiyasi.

Agroiqlim, yer, suv, o'rmon, biologik, geotermal resurslarning geografiyasi.

Zamonaviy ekologik muammolar.

Ekologik muammo tushunchasi. Ekologik muammolarning 3 pog'onasi: global, mintaqaviy va mahalliy. Eng dolzarb global ekologik muammolar: "issiqxona effekti", ozon "tuyuklari", cho'llanish, o'rmonsizlanish, ichimlik suvi tanqisligi, bioxilma-xillikni saqlash. Ekologik siyosat.

III BOB. JAHON AHOLISI

(5 soat)

Jahon aholisining soni, o'sish va joylashuvi.

Jahon aholisining soni va o'sishi. Demografik "portlash" va uning sabablari. Aholi ko'payishining turlari. Jahon aholisi joylashuvining asosiy omil va xususiyatlari. Aholi eng zich va eng siyrak joylashgan hududlar. Insoniyat tomonidan yangi hududlarni o'zlashtirish. Materik va qit'alarining aholisi soni. Aholisi eng ko'p davlatlar.

Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi.

Jahon aholisining jinsiy tarkibi. Jahon aholisining yosh bo'yicha tarkibi. Yosh-jins piramidalari. Jahon aholisining irqiy tarkibi. Asosiy va aralash irqilar.

Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi.

Til oilalari va guruhleri, ularning geografiyasi. Jahondagi eng yirik til oilalari, guruhleri va millatlar. Jahondagi yirik dinlar va ularning geografiyasi.

Jahonmamlakatlarningurbanizatsiyasi.

Dunyodashaharaholisiningo'sishi.Urbanizatsiyako'rsatkichi,
ungako'ramamlakatlarning 3 toifagabo'linishi.
Urbanizatsiyadarajasigata'siretuvchiomillar.Aglomeratsiyavamegalopolislar.

Amaliymashg'ulot.

Aholiko'payishi, zichligivatarkibi,
mamlakatlarningurbanizatsiyadarajasigaoidmasalalarniyechish.

IVBOB. JAHON XO'JALIGI

(12 soat)

Jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti.

Jahon xo'jaligi tushunchasi. Xalqaro mehnat taqsimoti haqida tushuncha.
Xalqaro ixtisoslashuv va uning omillari. Jahon iqtisodiyoti sektorlar tarkibi, uning
rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi farqlanishi.

Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari.

Jahon xo'jaligining geografik "modeli"ning ko'p markazlilik xususiyati.
Hozirgi zamonda tez o'sib borayotgan mintaqalarvaiqtisodiy markazlar. Xalqaro
va regional iqtisodiy integratsiya jarayonlari. Transmilliy korporatsiyalar.

Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga innovatsion texnologiyalarning ta'siri.

Fan-texnika inqilobi haqida tushuncha, uningasosiy xususiyatlari. Ishlab
chiqarish taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari: elektronlashtirish, kompleks
avtomatlashtirish, energetika xo'jaligini qayta qurish, yangi materiallar ishlab
chiqarish, biotexnologiya, koinotni o'zlashtirish, nanotexnologiyalar.

Jahon energetikasi geografiyasi.

Jahon yoqilg'i-energetika balansi. Jahon neft-gaz sanoatiningasosiy hududlari.
Neft va gazni qazib oladigan va eksport qiladigan asosiy davlatlar. Neft ishlab
chiqaruvchi mamlakatlar ittifoqi – OPEK.Jahonko'mir sanoati. Ko'mir qazib
oladigan yirik davlatlar. Elektroenergetika va uning asosiy tarmoqlari: issiqlik
energetikasi, gidroenergetika, atom energetikasi, noan'anaviy energiya resurslari
(geotermal, shamol, to'lqin, quyosh, qalqish energetikasi).

Jahon metallurgiya va kimyo sanoati geografiyasi.

Metallurgiya sanoati: qora metallurgiya. Joylanish turlari: toshko'mir
havzalari, temir ma'dani havzalari, kokslanadigan ko'mir va temir ma'dani
keltirishga, iste'molchiga tayanish. Qora metallurgiya rivojlangan davlatlar. Rangli
metallurgiya. Rivojlanayotgan mamlakatlarda metallurgiya sanoatining
rivojlanishi. Kimyo sanoati: to'rt eng asosiy hudud: Sharqiy Osiyo, AQSH,
G'arbiy Yevropa, MDH mamlakatlari. Rivojlangan va rivojlanayotgan
mamlakatlarda kimyo sanoatining shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy

xususiyatlari. Metallurgiya va kimyo sanoatining ekologik omillar ta'sirida rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chib o'tishi.

Jahon mashinasozlik va yengil sanoati geografiyasi.

Mashinasozlik. Uning 4 eng asosiy hududi: a) Sharqiy va Janubiy-sharqiy Osiyo; b) G'arbiy Yevropa; v) Shimoliy Amerika; g) MDH mamlakatlari. Osiyo va Lotin Amerikasida mashinasozlikning yuksalib borishi. Yengilsanoatrivojlangan dunyoregionlari. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yengil sanoatining rivojlanishidagi o'zgarishlari.

Jahon dehqonchiligi geografiyasi.

Iqtisodiy jihatdan turlicha rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligining o'ziga xos rivojlanishi. Tovar va iste'mol qishloq xo'jaligi. Tabiiy sharoit va resurslarning qishloq xo'jaligiga ta'siri. Don ekinlari. Moyli ekinlar, ildizmevali ekinlar. Shakar, quvvat beruvchi, tolali o'simliklar.

Jahon chorvachiligi va baliqchiligi geografiyasi.

Chorvachilik, uning asosiy tarmoqlari: qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik. Jahon bo'yicha go'sht, sut va junni ishlab chiqarish. Ayrim mintaqalarning o'ziga xos chorvachilik tarmoqlari. Baliqchilik.

Jahon transporti geografiyasi.

Jahon transport tizimidagi geografik tafovutlar. Mamlakatlarning ikki guruhi: iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar transporti. Avtomobil va temir yo'llarning uzunligi va zichligi. Temir yo'l uzunligiga ko'ra yetakchi davlatlar. Suv transporti: dengiz transporti, dengiz savdo floti. Jahon portlari. Dengiz kanallari, bo'g'izlari. Ichki suv transporti. Havo transporti.

Xalqaro iqtisodiy aloqalargeografiyasi.

Xalqaro savdo. Tovarlar tarkibi. Jahon savdosining geografik taqsimlanishidagi notekislik. Savdo balansi (muvozanati). Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligi. Xalqaro turizm.

IIBO'LIM. JAHONNING REGIONAL TAVSIFI

VBOB. YEVROPA MAMLAKATLARI

(10 soat)

Yevropaning geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi.

Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasi va undagi so'nggi o'zgarishlar. Davlatlarning boshqaruv shakli va siyosiy-ma'muriy tuzilishi.

Yevropaning tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi.

Yevropa tabiiy sharoiti. Yoqilg'i, mineral, agroiklim, suv, o'rmon resurslari. Aholisi va uning asosiy ko'rsatkichlari. Urbanizatsiya darajasi va shaharlari.

Yevropa mamlakatlarining iqtisodiyoti.

Xo'jaligining umumiy ta'rifi, integratsion jarayonlar. Yevropa Ittifoqi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, o'rmon, yengil sanoat. Qishloq xo'jaligi. Baliqchilik. Turizm.

Germaniya Federativ Respublikasi.

Hududi, chegaralari, geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Xo'jaligi. Ichki tafovutlari.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi.

Hududi, chegaralari, geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Xo'jaligi. Ichki tafovutlari.

Fransiya Respublikasi

Hududi, chegaralari, geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Xo'jaligi. Ichki tafovutlari.

Italiya Respublikasi

Hududi, chegaralari, geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Xo'jaligi. Ichki tafovutlari.

Rossiya Federatsiyasi.

Hududi, chegaralari, geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi.

Rossiya Federatsiyasi xo'jaligi.

Xo'jaligi, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari, ichki tafovutlar.

VIBOB. OSIYO MAMLAKATLARI

(18 soat)

Osiyo qit'asining geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi.

Geografik o'rni, hududi, chegaralari. Siyosiy xaritasi, undagi so'nggi o'zgarishlar. Davlatlarning boshqaruv shakli va siyosiy-ma'muriy tuzilishi.

Osiyo mamlakatlari tabiiy resurslariga aholisi.

Osiyo yoqilg'i, mineral, agroiklim, suv, o'rmon resurslari. Osiyo aholisining soni, o'sishi, joylashuvi, tarkibi, urbanizatsiyasi.

Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi.

Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va jahon iqtisodiyotidagi o'rni jihatidan guruhlashtirish.

Qozog'iston Respublikasi.

Qozog'istonning hududi, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Milliy iqtisodiyoti va uning tayanch tarmoqlariga umumiy tavsif. Tashqi iqtisodiy aloqalar. O'zbekiston bilan hamkorligi.

Qirg'iziston Respublikasi.

Qirg'izistonning hududi, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Milliy iqtisodiyoti va uning tayanch tarmoqlariga umumiy tavsif. Tashqi iqtisodiy aloqalar. O'zbekiston bilan hamkorligi.

Turkmaniston Respublikasi.

Turkmanistonning hududi, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Milliy iqtisodiyoti va uning tayanch tarmoqlariga umumiy tavsif. Tashqi iqtisodiy aloqalar. O'zbekiston bilan hamkorligi.

Tojikiston Respublikasi.

Tojikistonning hududi, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Milliy iqtisodiyoti va uning tayanch tarmoqlariga umumiy tavsif. Tashqi iqtisodiy aloqalar. O'zbekiston bilan hamkorligi.

Amaliy mashg'ulot.

Markaziy Osiyodavlatlarining qiyosiy-geografik tavsifi.

Turkiya Respublikasi.

Hududi, tabiiy sharoiti va resurslariga xo'jalik jihatdan tavsif. Aholisi, xo'jaligi. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Eron, Afg'oniston, Pokiston Islomrespublikalari.

Hududi, tabiiy sharoiti va resurslariga xo'jalik jihatdan tavsif. Aholisi, xo'jaligi. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Xitoy Xalq Respublikasi.

Maydoni, chegaralari, geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, demografik siyosati.

Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari.

Xo'jaligi, sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Iqtisodiy zonalar (sharqiy, markaziy, g'arbiy).

Koreya Respublikasi.

Maydoni, chegaralari, geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va uning ko'rsatkichlari. Xo'jaligi. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. Transporti.

Yaponiya.

Maydoni, chegaralari, geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va uning ko'rsatkichlari. Xo'jaligi. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. Transporti. Iqtisodiyotidagi ichki tafovutlari.

Hindiston Respublikasi.

Maydoni, chegaralari, geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi. Xo'jaligi, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, iqtisodiyotidagi ichki tafovutlari.

Fors qo'ltig'i Arab davlatlari.

Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy tuzumining o'zigaxosligi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Yoqilg'i-energetika resurslari va ularning mintaqada davlatlari xo'jaligi rivojlanishidagi ahamiyati. Aholisi. Sanoati va qishloq xo'jaligining xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlari.

Indoneziya, Malayziya, Singapur davlatlari.

Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Aholisi. Xo'jaligining xalqaro ixtisoslashgan sohalari.

VII-BOB. AFRIKA, AVSTRALIYA VA OKEANIYA, AMERIKA MAMLAKATLARI(13 soat)

Afrika qit'asining geografik o'rni, siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari. Maydoni, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. Afrikaning hozirgi siyosiy xaritasi.

Tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy boyliklari: mineral, yer, suv, biologik, rekreatsiya.

Afrika mamlakatlari aholisi va iqtisodiyoti.

Afrika aholisining soni, o'sishi, joylanishi, tarkibi. Urbanizatsiya darajasi va shaharlari. Afrikaning dunyo xo'jaligida tutgan o'rni. Afrika mamlakatlarida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va joylashuvining o'ziga xosligi. Afrika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan 3 ta iqtisodiy mintaqaga bo'linishi: JAR, O'rta dengizbo'yi mamlakatlar va Tropik Afrika.

Janubiy Afrika Respublikasi.

Geografik o'rni. Davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi. Xo'jaligining xalqaro ixtisoslashgan sohalari. Ichki tafovutlar.

Nigeriya Federativ Respublikasi.

Geografik o'rni. Davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi. Xo'jaligining xalqaro ixtisoslashgan sohalari. Ichki tafovutlar.

Misr Arab Respublikasi.

Geografik o'rni. Davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi. Xo'jaligining xalqaro ixtisoslashgan sohalari. Ichki tafovutlar.

Avstraliya Ittifoqi.

Avstraliya Ittifoqi. Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy tizimi. Tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari. Aholisi. Iqtisodiy rivojlanishi. Sanoati. Qishloq xo'jaligi. Ichki tafovutlar.

Amerikaning siyosiy xaritasi.

Amerika qit'asining geografik o'rni va hududi. Shimoliy va Janubiy Amerika materiklari, atrofidagi orollari. Siyosiy xaritasivauning shakllanish tarixi. Shimoliy va Lotin Amerika mintaqalari, ularning xususiyatlari.

Amerika Qo'shma Shtatlari.

Maydoni, chegaralari, geografik joylanishining o'ziga xos xususiyatlari. Tabiiy sharoiti va resurslari. Urbanizatsiya darajasi, shaharlari.

Amerika Qo'shma Shtatlari xo'jaligi va iqtisodiy rayonlari.

Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. Transporti va transport magistralari. Amerika Qo'shma Shtatlari regionlari.

Kanada.

Maydoni, chegaralari, geografik joylanishi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi joylanishidagi tafovutlar. Sanoati va qishloq xo'jaligi. Ichki tafovutlar

Braziliya. Mayni, chegaralari, geografik joylanishi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi joylanishidagi tafovutlar. Sanoati va qishloq xo'jaligi. Ichki tafovutlar.

Umumlashtiruvchi takrorlash.

Geografiya(Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi) faninio'qitishni mavzuiy rejalashtirish

№	Bo'limvaboblarnomi	Jami soatlartaqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1	I bo'lim. Jahonning umumiy Tavsifi 1-bob. Jahonning siyosiy xaritasi	3	3	-
2	2-bob. Jahon tabiiy resurslari	5	4	1
3	3-bob. Jahon aholisi	5	4	1
4	4-bob. Jahon xo'jaligi	12	10	2
5	II bo'lim. Jahonning regional tavsifi 5-bob. Yevropa mamlakatlari	10	9	1
6	6-bob. Osiyo mamlakatlari	19	16	3
7	7-bob. Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari	14	12	2
	Jami	68	58	10

Geografiyafanini chuqurlashtiribo'qitishni mavzuiy rejalashtirish

№	Bo'limvaboblarnomi	Jami soatlartaqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1	I bo'lim. Jahonning umumiy tavsifi 1-bob. Jahonning siyosiy xaritasi	5	5	-
2	2-bob. Jahon tabiiy resurslari	7	6	1
3	3-bob. Jahon aholisi	7	5	2
4	4-bob. Jahon xo'jaligi	18	15	3
5	II bo'lim. Jahonning regional tavsifi 5-bob. Yevropa mamlakatlari	15	13	2
6.	6-bob. Osiyo mamlakatlari	28	16	4
7.	7-bob. Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari	22	19	3
	Jami	102	87	15